



UVAYSIY G'AZALLARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Qosimova Madina Ibrohim qizi

Turon universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Tezida shoiraning g'azallarida qo'llangan badiiy vositalar (tashbeh, istiora, tazod, radif, qofuya), obrazlar tizimi va she'riy ohangdorlik xususiyari o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, ishq, Yusuf, mumtoz, ruhoni, g'azallar, fard, g'am.*

Qo'qon adabiy muhitida bir guruh shoirlarga ustozlik qilgan Jahon Otin Uvaysiy o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga o'zining muhim va benazir maqomi bilan yuksak hissa qo'shgan. Ayollar tasavvufi tushunchasini yangi pog'onaga olib chiqqan. Badiiy jihatdan pishiq, go'zal she'riyati nafaqat shoirlar uchun, balki shoirlar uchun ham mahorat maktabi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Uning shaxsiyatida asosan jasur, fidoyi va haqgo'y shoirlarga xos axloqiy ruhiy sifatlar ustunlik qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, har sohada bo'lgani kabi adabiy tanqidda ham yangicha ko'z qarashlar paydo bo'ldi. Asarlar yangi konsepsiya asosida o'rganilishi an'anaga aylandi. Shuningdek, Uvaysiy ijodiga ham yangicha baho berila boshladi. Adabiyotshunos olim Jumaxo'ja ham Uvaysiyning tasavvuf yo'liga kirib, dunyo va zamon dardlaridan taskin tasalli topganligi haqida shunday yozadi: "Mana shu baytlar Uvaysiy tasavvufning ashaddiy talabgoriga aylanganini tasdiqlaydi:

Faqr borgohiga qo'ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo'lsa, jonfido Uvaysiymen"

Faqrlikni orzu qilgan ko'ngil orif ko'nglidir. Haq oshig'i uchun boshni fido qilish mushkul ish emas. Unda malollik tuyg'usi yo'q. Shoira "Jonfido Uvaysiymen", deb o'zining taxallusini emas, balki Uvays Qaraniydan meros qolgan oshiqlik holatini ham aks ettirgan ushbu baytda.

Yana bir adabiyotshunosimiz Adizova Iqboloy Uvaysiy she'riyatining bosh mavzusi Ishq ekanligini ta'kidlaydi: "Insoniyat olamdan istagan va izlagan maqsadi, haqiqat yo'li Alloh ekanligini e'tirof etadi. Shu mutlaq sobitlik sari yuz burishni oliy martaba, deb biladi".

Uvaysiy o'zini "mehnatu alamlarga muhtalo", "qayda dard eli bo'lsa oshno" shoira sifatida tanitadi. Adabiyotimiz tarixida Uvaysiygacha bunday shoira bo'lmagan. Uning shaxsiyatida doimo jasurlik, fidoyilik, haqgo'ylik hamda go'zal axloqiy sifatlar ajralib turadi.

"Uvaysiyga qadar biron o'zbek shoiri o'z sevgilisini erkalab, uning yuzini gulzorga va unda ochilib turgan ra'noga qiyoslab g'azal bitmagan", -deb yozadi professor A. Hayitmetov. Uvaysiy she'riyatida ruhoni zavqning turli ko'rinishlari mavjudligi sababi ham uning uvaysiyligidir. Uning ko'ngli olamida bu zavqning jozibasi ham, ta'siri ham nihoyatda kuchlidir.

Mumtoz adabiyot namoyondalari faqru Fano obrazini yetarli darajada yoritganlar. Uvaysiy g'azallarida Fano haqiqatining ifodasi o'ziga xos xususiyatga egadir. Tasavvuf



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



istilohiga ko'ra, faqrlik kambag'allik, bechoralik emas, Balki Olloh oldidagi g'ariblik, ojizlikdir. Ushbu qarashga ko'ra, "faqir shunday kishiki, u faqat Haq ma'rifatga yetishishga muhtoj bo'ladi, xolos"¹ Fano esa tariqatning to'rtinchi maqomi bo'lib "Tarki dunyo qilib, hayotga qo'l siltash emas, balki olami botinni poklashdir".Ayni paytda, "Shu martabada komillik rutbasini qozonish ham "- deb yozadi adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov. Fano yo'qlik olamining ifodalari ham uvaysiylik sanaladi. Shoira bu ifodalarni tasavvufiy talqinlar, qaydlar ko'p uchraydi.Insonning komillik darajasiga yetishlikdagi qiyinchiliklar ifodasi shoira she'riyatida quyidagi kabi o'z aksini topadi:

Fano mardumlarini sirridan hech kimsa yo'q ogoh,

Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Fano holini ko'pchilik anglashga qodir emas. Shuning uchun "Qabih guftor mardumlar "- qabohat, iflos gaplar aytuvchi, g'iybatchi odamlar "Fano mardumlariga"doimo ozor yetkazib kelishgan. Shoira xuddi shu haqiqatga e'tiborini qaratar ekan, o'zining ko'ngli dog' bo'lganini ta'kidlaydi. Demak, uningcha Fano ahli o'zini haqiqiy ishqdan mahrum kimsalardan uzoq bo'lishini ham o'ylashi ham kerak. Ammo shoiraning uqdirishicha, Fano "Hol ilmi"dan yuzaga keladi. Izzat -ikrom talabi esa zohiriy bir ishdur:

Ki izzat qoldin, hol ilmidin bo'lgay Fano hosil,

Kelan atfoltoshi, bu Fano ahligadur davlat.

Jahon Otin Uvaysiy she'riyatining asosiy yo'nalishi Ishqi Ilohiy bilan bog'liqdir.

Uvaysiy g'azallarida noan'anaviylik bilan bir qatorda an'anaviylik xususiyati ham mavjud. Uning "Rahm"radifli g'azalining 2-bandida Yusuf payg'ambar va uning otasi Ya'qub payg'ambar obrazlari keltirib o'tiladi.

Qildi taqdiri azal Yusuf jamolidin yiroq,

Tong ermas, gar aylasa. Ya'qub Kanonimga rahm.

"Mumtoz she'riyatimizda, jumladan, XV asr birinchi yarmi davriga mansub shoirlarimiz ijodida salmoqli o'rin tutadigan, muhabbat bilan murojaat qilinadigan obrazlardan biri Yusufdir. Yusuf musulmon xalqlari rivoyat va afsonalarining sevimli obrazidir. Musulmonlar an'anaviy tasvirida asosan, uning go'zallilgiga e'tibor beriladi. Xalq og'zaki ijodi asarlarida shuningdek yozma adabiyotda ham Yusuf birinchi navbatda tengsiz husni, Olloh tomonidan faqat unga ato etilgan ko'rkli chehrasi bilan namoyon bo'ladi. Undagi go'zallik me'yori hadsiz." "Xabarda andog' kelur, izi azza va jalla ko'rkni yuz ulush qildi. To'qson to'qqizni Havvoga berdi. Bir ulushni qamug' odamlig'larga berdi. Ul bir ulushni yana o'n ulush qildi. To'quzin Yusufga, bir ulushni olamlig'larga berdi.

Yusuf obrazi blan bog'liq obrazlarni mazmunan shartli ravishda quyidagi guruhlar asosida tahlil etish mumkin.

1. Yusuf sarguzashtlari bilan bog'liq turli baytlarga ishora qiluvchi baytlar.
2. Yorni Yusufga tenglashtirish. Unga Yusuf nisbati berilganini ifodolovchi misralar.
3. Ma'shuqani Yusufdandan-da ustunligini aks ettiruvchi satrlar.
4. Oshiqni Yusuf voqealarida ishtirok etgan Ya'qubga qiyoslash.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Yusuf qissasida tasvirlanishicha, akalari unga yomonlik qilib uni halok etishadi . "Yusuf Ya'qubning eng sevimli o'g'li. Yusuf chekadigan har bir iztirob Ya'qubga chuqur musibat keltiradi. Ular to topishgunlaricha Ya'qub ko'z nuridin ayriladi. Uvaysiy g'azalida Yusuf obrazini ishlatilib, talmeh san'atini yuzaga keltirmoqda. "Talmeh ("nazar solmoq") She'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, shaxslar, joylar, Xalq maqollari va iboralariga ishora qilish san'atidir.

Misraning ma'nosi:taqdiri azal uni Yusufning jamolidan uni yiroq ayladi, Oshiqning visol ilinjida tortadigan azoblari Yusuf orzusida Ya'qubga miqyoslanadi. Uvaysiy g'azalining asl ma'nosi o'zini "Ya'qub Ka'non"ga tenglashtirib, farzandi Muhammadxondan judo bo'lishini anglatmoda . Bu o'rinda u Yusufga mengzalgan.

Bundan tashqari, Uvaysiyning "Ko'zum"radifli g'azalida "Layli va Majnun" an'anaviy obrazlari keltirib o'tilgan.

Majnun-chin oshiq. Layli mazlumlik simvalidir. Majnun mumtoz she'riyatimizda, asosan, ana shu belgisi-chin oshiqligi, ishqdagi vafosi bilan namoyon bo'ladi. Har qanday xo'rlik, azob, ruhiy va jismoniy qiynoqlar, kamsitish va haqoratlar Majnunni Laylidan voz kechishiga sabab bo'lolmaydi.

Layli surati beqiyos husn, mukammal shaklu-shamoyil, chiroyli qaddu- qomat ifodasi. Uning yonida oshiqning-"Majnuni hayron"ning o'rin olishi-ishqdan, uning rangin kechinmalaridan aftoda, ma'shuqasi bilan yonma-yon turish baxti bois aqlidan mosuvo, o'zligini unutgan inson qiyofasining shakllanishidir. Misrada Uvaysiy hech bir kimsa Laylinining ishqida Majnundek yonolmasligini sevolmasligini hamda o'zining yoriga, ya'ni Ollohga bo'lgan muhabbatini Majnun Layliga bo'lgan munosabatiga o'xshatadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, Uvaysiy she'riyati o'zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan davrlar osha muxlislar qalbiga bitmas-tutanmas estetik zavq bag'ishlab kelmoqda. Ular xalq ommasi orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari bilan hozirgacha kuylanib keladi. Shoira ijodi hududsiz ummon. Iste'dodi esa takrorlanmas va noyob. Uni o'rgangan sari tafakkurning teran hududlarini kashf etaveramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaxo'ja N. Ki bulbul nola, afg'on aylamakni mendin o'rgandi. Muloqot. 1999. N:2.
2. Adizova I. Dardsizlar zaxmidan bemorman. O'zbekiston san'ati . 1997. N:7.
3. Hayitmetov A. Jahon Otin Uvaysiy lirikasi. Sharq yulduzi. 1982. 12-son, 161-bet
4. Uvaysiy. Devon. -Toshkent. 1963, 26-bet
5. Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug'ati. -Xo'jand, 1997. 78-bet
6. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. -Toshkent:"Fan", 1995. 44-bet
7. Komilov N. Tasavvuf yoxud komil inson axloqi. Birinchi kitob. -Toshkent:Yozuvchi, 1996. 26-bet.